

TURK TILI VA O'ZBEK TILI GRAMMATIKASINING O'XSHASH VA FARQLI TOMONLARI

Tursunova Visola Behzod qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Tabiiyki, tarixan bir-biriga yaqin ikki qarindosh turkiy til: o'zbek va turk tili grammatikasining o'xshash va farqli tomonlari talay. Ularning ildizi va kelib chiqishi bir manbaaga taqalgani bois, ularni o'rganishda ularni solishtirib o'rganish va o'rgatish yaxshi natijalarga olib kelish ehtimoli yuqori. Ushbu maqolada bu ikki tilning farqli va umumiy tomonlari ilmiy asoslar yordamida asoslanib, bu ikki tilni o'qitish jarayonidagi ayrim metodikalar muallif tomonidan atroflicha yoritiladi.

Kalit so'zlar: turk tili, o'zbek tili, grammatik qiyoslov, o'zaro farq, o'xshashlik, kelishiklar, egalik qo'shimchalari va h.k.

Ma'lumki, o'zbek va turk tillari bitta oila, ya'ni turkiy tillar oilasiga mansubdir. Shu sabab ikki til grammatikasida o'xshash tomonlar va farqli jihatlarni uchratishimiz mumkin.

Dastlab turk va o'zbek tillaridagi o'xshash jihatlarni birma-bir sanab o'tsam:

1. Jins kategoriyasi yo'q. Ya'ni, Boshqa tillardagi kabi erkak va ayol jins uchun alohida grammatik shakllar yo'q. Bir qator Yevropa tillarida otlar jinsga bo'linadi. Masalan, rus tilida stol (m.r), kniga (j.r), okno (s.r) va h.k. Shuningdek, bu ikki turkiy tilimizda olmoshlar ham jins farqi tufayli o'zgarmaydi. Masalan, ingliz tilida he (o'g'il bolaga nisbatan "u"), she (qiz bolaga nisbatan "u"), it (jonsiz narsalarga nisbatan "u"). Lekin turk va o'zbek tillarida uchala kategoriyaga nisbatan ham "U" so'zi ishlatilaveradi.

2. Kelishiklardagi o'xshashlik. Turk tilida ham, o'zbek tilida ham 6 ta kelishik shakllari mavjud. Ular faqatgina nomlarida farq qilishi mumkin, lekin vazifalari o'xshash. Ikki tilda ham kelishiklar so'z asosiga qo'shib yoziladi. Masalan, bobomning uyi (o'zbek tilida), dedemin evi (turk tilida).

3. Ko'plik qo'shimchasi. Ikki tilda ham ko'plik asosan -lar/-ler qo'shimchasi orqali yasaladi. Masalan, o'zbek tilida kitob+lar=kitoblar. Turk tilida esa kitap+lar=kitaplar. Lekin, turk tilida ushbu ko'plik qo'shimchasi o'zidan avvalgi unli harfga moslashadi. Masalan, bebek+ler=bebekler.

4. Gapda sifatlarning qo'llanilishi. Ikki turkiy tilda ham sifatlari ot oldidan qo'llaniladi. Misol uchun, o'zbek tilida "toza ko'cha", turk tilida "temiz sokak" kabi.

5. So'z turkumlaridagi o'xshashlik. Turkchada ham, o'zbekchada ham ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l, bog'lovchi, yuklama bor.

O'zbek va turk tillaridagi asosiy grammatik qoidalar deyarli bir xil. Farqlar ko'pincha talaffuzda va leksikada sezilishi mumkin.

Endi ikki til grammatikasidagi farqlarni atroflicha yoritamiz:

1. Fe'l zamonlaridagi farq. Turk tilida 4 ta zamonni uchratishimiz mumkin. O'zbek tilida esa zamonlar soni uchta.

2. O'zlashma so'zlardagi farq. O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlar, asosan, arab va fors tillaridan kirib kelgan. Masalan, maktab, muallim, saboq, talaba kabi. Turk tilidagi o'zlashma so'zlar esa fransuz va ingliz tillaridan kirib kelgan. Misol uchun, otel, tren, telefon kabi.

3. Qo'shma so'zlardagi farq. Turk tilida, asosan, bunday so'zlar yordamchi fe'l bilan ishlatiladi. Masalan, sohbət etmək, plan yapmak kabi. O'zbek tilida esa, ular bir yaxlit so'z bilan ifodalanadi. Masalan, suhbatlashmoq, rejalashtirmoq kabi.

4. Fe'l shakllaridagi farq. Turk tilida fe'lning –mak/-mek shakllar ishlatiladi. O'zbek tilida esa doim –moq qo'shimchasini qo'llash mumkin. Masalan, turkchada okumak, dinlenmek. O'zbekchada o'qimoq, dam olmoq kabi.

5. Istak ma'nosi ifodalanishi. Turk tilida istak ma'nosi asosan qo'shimchalar yordamida ifodalanadi. Masalan, gelseydi (kelsa edi). O'zbekchada esa ko'pincha yordamchi so'zlar bilan ifodalanadi. Misol uchun, kelsa edi kabi.

6. Murojaatdagi farqlar. Turklar oila a'zolarini, o'z yoshidan katta insonlarni ham bimalol sizlamasdan murojaat qilaverishadi. Masalan, *baba, eve gel* kabi. O'zbek tilida esa kattalarga hurmat bilan sizlab gapiriladi. Misol uchun *dada, uyga keling* kabi.

Xulosa: So'ngso'z o'rnida aytish mumkinki, o'zbek va turk tillari tarixan bir ildizga taqalgani bois uning o'xshash tomonlari farqli jihatlaridan ko'pligi va farqlar ham bir-biriga yaqinligi yuqoridagi ma'lumotlar orqali yetarlicha asoslandi. Bu tillarni bir-biriga solishtirib, turli interaktiv metodikalar orqali o'rganish orqali, ushbu tillarning asl mohiyatini anglash va yaxshi natijalarga erishish mumkinligi ushbu maqola orqali yetarlicha dalillandi, negaki ushbu usullar bilan tilni o'rganish, o'rganuvchilar miyasida tahliliy fikrlarni shakllantiradi va o'rganilgan ma'lumotlarni tezkor xotiradan, asosiy xotiraga o'tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Caferoğlu, A. (1968). Türk Dili Tarihi. Istanbul: Istanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Yayınları.
2. Reshidov, O. (1982). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi.
3. Hojiev, A. (2004). Hozirgi o'zbek adabiy tili morfologiyasi. Toshkent: Universitet.
4. Gülensoy, T. (2011). Türkiye Türkçesi ile Özbek Türkçesi Arasındaki Benzerlikler ve Farklılıklar. Turkish Studies, 6(3), 1035-1046.
5. Üşenmez, E. (2014). Türkiye Türkçesi - Özbek Türkçesi Gramer Karşılaştırması (Fiil). Ankara: Altınordu Yayınları.
6. Rahmonov, I., Polatov, N., & Bo'ronov, S. (2019). O'zbek tili grammatikasi (2 jildlik). Toshkent: Fan.